

O'ZBEK XALQ QARG'ISHLARNING XUSUSIYATLARI

Toshtemirova Ma'rifatoy G'ayratbek qizi

IT va Ijtimoiy - gumanitar fakulteti Filologiya o'zbek

Tili yo'nalishi 1-kurs FTO' 25-11 guruh talabasi.

Ilmiy rahbar – Xudayberdiyev Akramjon Akbarovich

Annotatsiya: Mazkur tezisda o'zbek xalq og'zaki ijodida, uchraydigan qarg'ishlarni mazmun-mohiyati va xususiyatlari tahlil qilinadi. Qarg'ishlarning xalq tafakkuri axloqiy-me'yoriy qarashlari hamda milliyligi bilan bog'liqligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: qarg'ish, og'zaki ijod, milliylik, folklor, axloqiy, marosim, salbiy, xususiyat, o'zbek, ayollar, xalq.

O'zbek folklori uzoq tarixga borib taqaladi. Unda xalqni urf-odatlarini an'analari, o'y-xayollari, orzu-umidlari bilan birga qarg'ishlar ham namoyon bo'ladi. Qarg'ishlar faqatgina salbiy emas, ijobiy ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Ota-ona farzandini hech qachon yomon bo'sin demaydi. Shu o'rinda qarg'ish ishlatayotganda ijobiy qarg'ishlardan foydalanishga harakat qilishgan. Misol uchun, "Burning jaynamozga tekur" "Uying bug'doydan to'lgur" kabi ijobiy qarg'ishlardan foydalanishgan. Qadimgi insonlar so'zning magik qudratiga ishonganlar. "Yaxshi so'z ezgulikka, yomon so'z esa yovuzlikka yetaklaydi" deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham qadimdan xalqimizda qarg'ish o'q u aytildimi, albatta borib kimgadir tegadi degan fikr yurgan. Qarg'ishlar kuchli emotsional holatda vujudga keladi, chunki ular insonning ichki noroziligi, alam va g'azabining til orqali ifodalanishidir.

Folklorshunos olimlar ham qarg'ishlar haqidagi o'z fikrlarini bo'lishib kelmoqda. 1980-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan 3-butunitifoq turkologiya kanfrensiyasida ozarbijonlik olim B. A. Abdullayev ham olqish va qarg'ishlar haqida nutq so'zlagan. Uning fikricha, qarg'ishlar odamlarning tasavvurlari va ishonch – e'tiqodlari asosida paydo bo'lgan ekan.

O'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib qarg'ishlarni tasnif qilib o'z maqolasida keltirgan professor M.Murodovning "Olqish va qarg'ish" maqolasida keltirib o'tgan. Olim o'zini ko'p yillik olib borgan ekspeditsiyalari davomidakishiga nisbatan psixologik hukmning eng ta'sirchan, eng kuchli, eng kuchli vositalardan biri hisoblangan qarg'ishlarning ko'plab namunalari yozib olgan va o'zining maqolasida 60 dan ortiq qarg'ish turlarini chop ettirgan. Yana bir folklorshunos olim B.Sarimsoqov ham o'zbek tilshunosligida qarg'ishlarni o'zgan. Uning fikricha, qarg'ishlar o'zgaras harakterga ega ya'ni

barqarordir, ijrochilar tarkibi egaligi bilan bog'liqligi; ijrochilar tarkibiga egaligi; maqsad-ziyon yetkazish ekanligi; ayollar va erkaklar qarg'ishiga bo'linishi kabi asosiy xususiyatlari bilan xarakterlanadi. B. Sarimsoqov o'zbek xalq qarg'ishlarida ifodalangan istak- mativlari haqida so'z yuritir ekan, ularni turli jonsiz narsalar bilan bog'liq, kishiga o'lim tilash, kishining biron joyiga zarar yetkazish bilan bog'liq qarg'ishlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Qarg'ishlarni asosiy mazmuniy xususiyati jazo, balo va baxtsizlik tilash orqali adolatni tiklash istagi bilan bog'liq bo'lib, bu xolat xalq tafakkuriga xos axloqiy qarashlarni namoyon qiladi. Qarg'ishlarni yana bir muhim xususiyatlari ularning yuqori darajadagi ekspressivligi bo'lib metafora kinoya vositalari orqali ifodalanadi. Qarg'ishlarni yana bir xalqona taffakur mahsuli ekanligini sababi, uni tana a'zolari, kassalik nomlari, tabiat hodisalari va falokat obrizlarining qo'llanilishi hisoblanadi. Qarg'ishlarni yana bir xususiyati ularni diniy va mifologik tasavvurlar bilan bog'liqligi bo'lib, ilohiy jazo taqdir va adolat tushunchalari mavjud.

Biroq, shunday xalqlar borki ular kundaliik hayotida qarg'ishlardan foydalanmaslikka harakat qilishgan. Misol uchun, Vologod viloyati aholisi o'rtasida "qarg'ovchi tilida aytilgan qarg'ishdan hazar qilganlar, kimnidir qarg'ashni o'ziga ep ko'maganlar. Sababi, ular qarg'ish qushga o'xshaydi uchib ketgach baribir o'z iniga qaytib keladi deb o'ylashgan. Shunga o'xshash e'tiqodiy qarashlar tufayli kishilar o'z nutqida qarg'ishlardan foydanmaslikka harahkat qilishgan. Mazmuniga ko'ra o'zbek xalq qarg'ishlarini maishiy, ijtimoiy, axloqiy va diniy qarg'ishlarga ajratish mumkin. Ular asosan nizoli vaziyatlarda, adolatsizlik yuzaga kelganda yoki yomonlikka javoban qo'llanadi. Qarg'ishlarning asosiy vazifasi yomon xatti- harakat qoralash, adolatsizlikka munosabat bildirish va ma'naviy jazo berishdan iborat. Salbiy qarg'ishlar insonga uning tana a'zolariga yoki oilasiga, ishiga mol-u dunyosiga qarata aytilgan yomon duodir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq qarg'ishlari xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lib, xalqning axloqiy qarashlari, adolat tushunchasi va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Qarg'ishlar ko'pincha ramziy va obrazli ifoda orqali berilib, ochiq haqoratdan ko'ra ma'naviy- ta'sirchan kuchga ega. O'zbek xalq qarg'ishlarini o'rganish xalq mentaliteti, folklor tafakkurini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sarimsoqov. B. // O'zbek xalq og'zaki ijodi // - Toshkent; Fan; 2004
2. Afzalov. M. // O'zbek xalq maqollari va iboralari. // - Toshkent ; Fan; 1986
3. Rahmonova V. // O'zbek xalq iboralari va nutq madaniyati // - Toshkent; Ma'naviyat, 2012